



QADRIYATLAR TIZIMI TUSHUNCHASI: YANGI QADRIYATLAR TIZIMI SHAKLLANISHINING ASOSIY OMILLARI

Kdirbayev Qonisbay Muratbay o'g'li

«Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti» MTU tayanch doktoranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6603392>

MAQOLA TARIXI

Qabul qilindi: 10- may 2022

Ma'qullandi: 14- may 2022

Chop etildi: 31- may 2022

KALIT SO'ZLAR

Qadriyat, qadriyatlar tizimi, yangi O'zbekistonda shakllanayotgan qadriyatlar tizimi, yangi qadriyatlar tizimi shakllanishining asosiy omillari.

ANNOTATSIYA

Bu maqolada qadriyatlar tushunchasi, qadriyatlar tizimi shakllanishining asosiy jihatlari va hozirgi O'zbekistondagi o'zgarishlarning natijasida shakllanayotgan yangi qadriyatlar tizimining ijtimoiy-falsafiy tamoyillarini tahlil qilindi.

Qadriyatlar tushunchasi mohiyatan ju'da sermazmun va ko'p qirrali tushuncha hisoblanadi. Shuning uchun ham adabiyotlarda mazkur tushunchaga turlicha yondashuvlarni uchratishimiz mu'mkin.

Xo'sh, qadriyatlar o'zi nima? Qadriyatlar tizimining shakllanishining asosiy jihatlari nimalardan iborat? Yangi O'zbekistonda shakllanayotgan qadriyatlar tizimining o'ziga xos xususiyatlari, uning shakllanishiga ta'sir etuvchi asosiy omillar qanday?

Qadriyatlar muammosini tahlil qilishning ildizlari qadim zamonlarga borib taqalsa-da, aksiologiya falsafiy fanlarning alohida bir sohasi sifatida XIX asrning oxirlarida shakllandi. «Aksiologiya» (grekcha axios – qadriyat, logos – fan, ta'limot) iborasini

fanga birinchi bo'lib, nemis faylasufi E.Gartman va frantsuz olimi P.Lapi tomonidan kiritilgan.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Mazkur maqolani tahlil qilish jarayonida tarixiylik, tizimlilik, izchillik va ob'ektivlik usullaridan keng foydalanildi. Respublikamiz va chet el olimlarining ilmiy mehnatlari metodologik manba bo'lib belgilandi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

So'ngi davrlarda ko'pgina olim va mutafakkirlarning mehnatlarida qadriyatlar tushunchasi alohida o'rin egallaydi.

Nemis olimlari V.Vindel'band (1848-1915) va G.Rikkert (1863-1936) qadriyatlar muammosi borasida bir xil mulohaza yuritganlar.



Vindel'band qadriyat tushunchasining ma'nosini shu qadar keng talqin qiladiki, uningcha, «butun falsafa qadriyatlarning eng umumiy shakllarini tahlil qilish bilan shug'illanishi lozim. Shu ma'noda falsafa umumiy ahamiyatga ega bo'lgan qadriyatlar haqidagi ta'limotdir». Vindelbandning bu fikri Rikkert tomonidan quyidagicha ifodalangan: qadriyatlar muammosi qachon paydo bolgan bo'lsa, o'shandan buyon falsafa dunyoga kelgan, falsafiy fikrlash o'sha davrdan boshlangan.

P.Chujovskiyning fikricha, «insonning vazifasi o'zini o'rab turgan olam, undagi narsa va hodisalar qadrini anglab olishga intilishidan, o'z hayotida ana shu qadriyatlarga asoslanib faoliyat yuritishdan iborat bo'lmog'i lozim».

P.Uilyamsning fikricha, «qadriyat qiziqish, ehtiyoj, talablar, ma'naviy burch, nafosat tuyg'usi va boshqalar bilan bog'liq tarzda vujudga keladigan holatdir. U kishining hayot yo'lini, faoliyat mezonini, voqealarga nisbatan o'z pozitsiyasini tanlab olayotganida muayyan ta'sir ko'rsatadigan tushunchadir».

Qadriyatlarni kishilar uchun zarur narsa, hodisa yoki ob'ekt sifatida ta'riflash, ya'ni ularni ayniylashtirish hollari ham bor. Bunday ta'rif V.P.Tugarinov tadqiqotlarida ham mavjud. U qadriyatlarni muayyan jamiyat, sinf yoki alohida shaxsning qiziqishlari va ehtiyojlarini qondirish uchun kerakli, zarur, foydali, yoqimli bo'ladigan narsalar, voqea-hodisalar va ularning xossasi hamda normalar, maqsadlar yoki ideallar tarzida tushinadi.

Bu fikrga biz to'laqonli qo'shila olmaymiz. Qadriyat haqida fikr yuritganda shu narsani ham alohida ta'kidlab o'tishimiz zarur. Jamiyatta shaxsining faxat qiziqishlari, ehtiyojlarini qondirish uchun kerakli,

zarurli, foydali, yoqimli bo'ladigan narsalar, voqea-hodisalar, maqsadlar va ideallarning o'zi qadriyatni belgilab bermaydi. Jamiyatta buzg'unchi g'oyalar, maqsadlar, ideallar va shu kabilar ham ko'p. Masalan terrorchining qiziqishlari, maqsadlari qadriyat uchun zid tushuncha.

«Qadriyat» ga berilgan tariflar ju'da ko'p. Unga ja'miki narsalar, boyliklar, kashfiyotlar va boshqalarni sanash orqali ta'riflash hollari ham uchramoqda. Negaki, dunyoda qadrlanadigan narsalar, hodisalar, voqeliklar, jarayonlar, joylar va sifatlar, ideal va maqsadlar nihoyatda ko'p. Shularni hisobga olgan holda biz qadriyat haqida so'z yuritganimizda unga umumiy ta'rif sifatida quyidagini keltirishimiz mu'mkin:

«Qadriyat – biror bir tarzda va shaklda zoxir bo'ladigan, sub'ekt uchun muayyan ta'sirini namoyon qiladigan voqelikning turli-tuman shakllari, ko'rinishlari, narsalar, hodisalar, jarayonlar, munosabatlar, turli sifatlar, xususiyat, axloq va ma'naviylik mezonlari hamda boshqalarning sub'ekt uchun ijtimoiy ahamiyati va qadrini ifodalaydigan umumiy akseologik kategoriyadir».

Demak, qadriyat deyilganda inson va insoniyat uchun ahamiyatli bo'lgan, millat, elat va ijtimoiy guruhlarining manfaatlari va maqsadlariga xizmat qiladigan, ular tomonidan baholanib qadrlanadigan tabiat va jamiyat hodisalari majmui ne'matlari tushinilmog'i lozim.

Qadriyatlar tizimining shakllanishi esa siyosiy-huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy-madaniy, diniy-axloqiy kabi bir qancha omillarning bir-birlari bilan bog'liqlikda namoyon bo'lishiga bog'liq. Bu borada ular o'z tabiatiga ko'ra amaliy faoliyatning haqiqiy maqsadlarini ifodalaydi, muayyan ahamiyatga ega bo'ladi va kundalik xatti-harakatlarning ma'naviy



asoslarini to'g'ri belgilash imkonini yaratadi. Siyosiy-huquqiy omillarda – tenglik, odillik mustaqillik, demokratiya, erkinlikni; ijtimoiy-iqtisodiy omillarda – jamiyatda insonlar turmish tarzining yaxshilanishiga bog'liq bolgan ba'rsha tushunchalarni; ma'naviy-madaniy omillarda – ja'miyat ahamiyatiga molik bo'lgan qarashlar, fikrlar, g'oyalar, meroslar va boshqalarni, diniy-axloqiy omillarda – yaxshilik, burch, vijdon, hayotning ma'nosi va shu kabi boshqa tushunchalarning qadriyat darajasiga ko'tarilishini tushinamiz.

Ya'ni biz Qadriyatlar tizimi deganimizda «Muayyan voqelik, jamiyat va uning rivojlanish bosqichiga mos keladigan, ob'ekt yoki sub'ekt qadri va ahamiyatining in'ikosi bo'lgan, ob'ektiv ravishda tasavvur qilinadigan va bilish jarayonida anglab olinadigan turli qadriyat shakllarining o'ziga xos bog'lanishini va dialektik aloqasini ifodalaydigan akseologik tizimlar» ni tushinamiz.

Bir so'z bilan aytganda qadriyat deganda «inson uchun olamdagi narsa va hodisalarning ahamiyatliligining tushinilishi» nazarda tutilsa, qadriyatlar tizimida qadriyat omillarining o'ziga xos bog'lanishi va uning insonlar hayot tarziga aloqasining bir butun tizimi tushiniladi.

XULOSA

Mustaqilligimizni qo'lga kiritgan da'stlabki kunlardan to bugungi ku'nga qadar, qadriyatlar va qadriyatlar tizimi haqida Respublikamizning ko'pgina faylasuf olimlari tomonidan bir qancha izanishlar

olib borilgan va uning mohiyati, asosiy jihatlarini keng yoritib berishga harakat qilganlar.

Agar Nazarov.Q.N va Abdullaev.T.U kabi faylasuf olimlarimiz Mustaqillik davrida shakllanayotgan qadriyatlar tizimining milliy va umuminsoniy jihatlarini ijtimoiy-falsafiy muammo sifatida o'rganishgan bolsa,

Muxammadiyeva.O.M,
Gayipnazarov.R.R, Ruzieva.R.X,
Nurmatova.M.A, Temirova.N.E,
To'ychieva.T.T, Sharipova.O.T
Qambarov.A.A, Abdullaev.M, Tulenov.J,
Musurmonova,O, Xaydarov.A kabi tadqiqotchilar asosan ma'naviy-axloqiy jihatlariga e'tiborini qaratganlar. A.Karimova va N.Komilovlar esa qadriyatlarining din bilan bog'liq masalalarini o'rgandi.

Huquqiy qadriyatlar sohasida esa Yakubov.Sh.U, Sadikova.Y.S, Samiev.I.V, Atavullaev.M.A, kabi tadqiqotchilar o'zlarining dissertatsiya ishlarini himoya qilishgan.

Albatta bu tadqiqotlar katta ilmiy ahamiyatga ega. Lekin shuni ham alohida ta'kidlashimiz kerak. So'ngi yillarda Davlatimizda amalga oshirilgan o'zgarishlar insonlar ongida yangicha dunyoqarashni, yangicha tafakkurni shakllantirdi. Xususan qabul qilingan qarorlar, farmonlar va amalga oshirilgan samarali reformalar natijasida jamiyatning siyosiy, huquqiy, ijtimoiy, iqtisodiy, ma'naviy, ma'rifiy jihatdan yangilanishiga ham olib keladi. Bu esa yangi qadriyatlar tizimining shakllanishiga asos bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Назаров Қиём Нормирзаевич «Қадриятлар тизими: Барқарорлик ва ўзгарувчанлик диалектикаси (аксеологиянинг ижтимоий-фалсафий муаммолари)» Фалсафа фанлари доктори даражаси учун ёзилган диссертацияси. Тошкент – 1996.
2. Жондор Туленов «Фалсафий маданият ва маънавий камолот» Тошкент «Мехнат» – 2000.



3. Виндельбанд В. Прелкидии. -СПБ., 1904.
4. Риккерт Г. О понятии философия //Логос. -СПБ., 1914.
5. Chigovsku P.O vtaboiviy vybor morabniy. Krakov. 1977.
6. Williams P.M. The corept of Values. N.Y. 1968.
7. Тугаринов В.П. Теория цунности в марксизме. -Л.: ЛГУ, 1968.